

TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOTLAR

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*


Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda Hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida, faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida, 2023- yil 1-fevral holatiga ko'ra (fermerva dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-fevral holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni
*(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)*

36568



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

4823



Oilaviy korxonona

195



Unitar korxonona

5979



Xususiy korxonona

47



Aksiyadorlik jamiyati

299




Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida)


5





Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (yanvar oyida, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,3 foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



450

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

8 956

Ishlab chiqarish sanoati

58

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

177

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish


2023- yil 1-fevral holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 9641 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,4 %ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan) ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 4,7 %ga (jami sanoatdagi ulushi 92,9 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 1,5 %ga (jami sanoatdagi ulushi 4,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 0,4 %ga kamaygan (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 0,2 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,8 %) oshgan.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,1** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




3,2 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




4,4 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




3,3 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **20,1** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 999 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 %ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 6,6 %ga (jami qurilishdagi ulushi 53,5 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 23,9 %ga (jami qurilishdagi ulushi 9,6 %), korxonalar sonining ortirishidir, shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 5,5 %ga (jami qurilishdagi ulushi 36,9 %) kamayishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 16 183 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,7 %ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 5,9 %ga (jami savdodagi ulushi 66,1 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 20,9 %ga (jami savdodagi ulushi 26,9 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 11,4 %ga (jami savdodagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

852



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

31



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

30



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



396

yashash bo'yicha xizmatlar



3 539

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2023- yil 1-fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 935 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 %ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 3,3 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 89,9 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 7,0 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 10,1 %) o'sishidir.

54 432

ro'yxatdan o'tgan


47 567

faoliyat ko'rsatayotgan


491

2023- yilda yangi
tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1-fevral holatiga ko'ra 5 597 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 657 taga yoki 13,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 823 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 262 taga yoki 5,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 33 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga yoki 64,7 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yilning 1-fevral holatiga ko'ra 41 070 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 940 taga yoki 13,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 36 568 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 037 taga yoki 9,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 447 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 53 taga yoki 10,6 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, 1 745 tani tashkil etib, ulardan 1 633 tasi yoki 93,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 196 taga yoki 13,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar oyida viloyatimizda 14 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar oyida, birlikda)



	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent viloyati	1745	746	999
Oqqo'rg'on t.	21	6	15
Ohangaron t.	93	33	60
Bekobod t.	10	6	4
Bo'stonliq t.	71	37	34
Bo'ka t.	16	5	11
Quyichirchiq t.	53	26	27
Zangiota t.	240	86	154
Yuqorichirchiq t.	128	55	73
Qibray t.	186	82	104
Parkent t.	30	11	19
Piskent t.	30	12	18
O'rta Chirchiq t.	107	36	71
Chinoz t.	31	13	18
Yangiyo'l t.	104	36	68
Toshkent t.	92	52	40
Nurafshon sh.	81	29	52
Olmaliq sh.	58	18	40
Angren sh.	115	69	46
Bekobod sh.	32	20	12
Ohangaron sh.	54	26	28
Chirchiq sh.	116	63	53
Yangiyo'l sh.	77	25	52

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilganzim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

Statistik registrarni yuritish bo'limi

Tel.: (71) 202-86-83